

Qishloq Qurilish Bank

Sumitomo Mitsui Banking Corporation (Yaponiya) bilan hamkorlik munosabatlari o'rnatilmoqda

03.10.2018

Mijozlarga xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ATB "Qishloq qurilish bank" xalqaro moliya institutlari va horijiy banklar bilan uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishga intilmoqda, bu esa, o'z navbatida, yangi turdagi mahsulotlarni yaratish, ichki iste'mol bozorini to'ldirish, mahsulotlar eksportini kengaytirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini yaratadi.

O'z oldiga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish yo'lida 2018 yilning 25 sentabr kuni bankimiz Yaponiyaning Sumitomo Mitsui Banking Corporation vakillari bilan uchrashdi. Mazkur uchrashuv doirasida vakillik hisobvaraqlari ochish, savdoni moliyalashtirish va uzoq muddatli moliyalashtirish sohasida hamkorlik munosabatlarini o'rnatish to'g'risida muzokaralar olib borildi.